

**O'ZBEKISTONDA MUHANDISLIK IJTIMOYIY INFRATUZILMANI
RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MUAMMOLARI**

O'rolov Humoyun Erkin o'g'li

Toshkent shahri

Mirzo Ulug'bek nomidagi Milliy Universiteti

"Iqtisodiyot fakulteti" magistranti

Ilmiy rahbar: i.f.d. prof. Abulqosimov Xasan Pirnazarovich

Annotatsiya: Maqolada mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy yuksalish uchun asosiy omil hisoblangan erkin muhandislik ijtimoiy infratuzilmani, rivojlantirish tendensiyalari va hozirdagi muammolarining nazariy asoslari yoritilgan. Bu o'z navbatida xar bir viloyatni o'zining mineral va resurs boyliklaridan kelib chiqqan holda, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishni talab qilinadi. Ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, eksport salohiyatini oshirish diversifikatsion siyosatni kuchaytirish mintaqalar iqtisodiyotini barqarorligini va mamlakatimizdagi hozirgi holati yoritib berilgan. O'zbekistonda muhandislik ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish bugungi kunning dolzabr masalasi hisoblanadi. Bu orqali esa ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar uchun modellashtirishdan organik ravishda samarali foydalanish ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: muhandislik, iqtisodiyot, infratuzilma, ijtimoiy, iqtisodiy, maishiy, ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish.

KIRISH

Infratuzilmalarning ijtimoiy, maishiy, bozor shakllarida esa bu jarayon yanada murakkab "masofa"ni bosib o'tib, ularning ba'zilarida (ijtimoiy va maishiy infratuzilmalarda) yaratilayotgan qiymat ishchi kuchi takror ishlab chiqarishi orqali, ba'zilarida (bozor va maishiy infratuzilmalarda) esa resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va bozor mexanizmlari tizimida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham infratuzilma tushunchasiga ta'rif berilganda ayrim tadqiqotchilar uni tovarlar shakli va ishlab chiqarish jarayonlariga bevosita aloqador bo'lmagan, shuningdek, ishlab chiqaruvchiga to'g'ridan-to'g'ri foyda (yoki daromad) keltirmaydigan "jamiyat sarf xarajatlari" sifatida baholasalar, ayrim tadqiqotchilar ishlab chiqarish amalga oshirilishini va samaradorligini ta'minlashning zaruriy xarakterdagi shartlar (yo'llar va kommunikatsiyalar tarmog'i, transport vositalari va qatnovi, yer qurilishi va boshq.) majmuasi, deya e'tirof etadilar¹. Bu guruh tadqiqotchilar fikricha, infratuzilmalar tizimining samarali tashkil etilishi bozor xo'jaligi sharoitidagi korxonalar xarajatlarini

¹ Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali №9

qisqartirish, kapital harakati jarayonini yengillashtirish, jamiyat miqyosidagi talab va bandlik darajasini oshirish, shuningdek, foyda normasini ko'paytirish imkonini beradi. O'zbekistonda davlat ijtimoiy infratuzilmasidagi vaziyatni barqarorlashtirish va yaxshilash uchun turli darajadagi choralarni ko'rmoqda. Fuqarolarning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga qaratilgan qator milliy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo'nalishlaridan biri mintaqaning ijtimoiy infratuzilmasi va uni rivojlantirishdir. Masalan, Prezidentning 22-yanvar 2022-yildagi "2022-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoniga asosan yaqin 77 yilda 3 trln.so'mga yaqin mablag' ajratiladi. Uni amalga oshirish uchun jami 76,8 trln.so'm, shu jumladan 23,8 trln. so'm 2022 yilda ajratiladi. Bu yil mablag'larning katta qismi ijtimoiy sohaga (5,9 trln.so'm), mudofaa va yopiq qismga (4,5 trln. so'm), muhim ob'ektlar qurilishiga (3,9 trln. so'm), yo'l-transport infratuzilmasiga (2,7 trln. so'm) ajratiladi².

ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlangan mamlakatlarda muhandislik ta'limini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishi talabalarning o'quv ishlarini boshqarish tizimini, shuningdek, kasbiy ta'limning tashkiliy tuzilmasi doirasida bo'lajak muhandislarning mustaqilligi, mas'uliyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlarini optimallashtirishdir. Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi tegishli darajadagi va profilli, mehnat bozorida raqobatbardosh, kasbni yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohasiga yo'naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlashdir. Ilm – fan, texnika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan turli xil yangiliklarni joriy yetish nafaqat asosiy umumiy nazariy tayyorgarlikni-mahalliy muhandislik ta'limi merosi va g'ururini saqlab qolish, balki mustahkamlash ham zarur.

Mazkur muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish: yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash vazifasi infratuzilmalarning ijtimoiy barcha bosqichlarida darajani sifat jihatidan o'zgarishini ta'minlaydigan yangipedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llash orqali hal qilinishi kerak.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, infratuzilmalarga berilayotgan tavsiflarning xilma-xillik ko'p hollarda tadqiq etilayotgan ob'ekt yoki faoliyat sohasining yetakchiligini ta'minlashga bo'lgan bo'lgan moyillik ta'siriga uchraydi. Ya'ni, ayrim tadqiqot ishlarida moddiy ishlab chiqarish sektorini o'rganilish jarayonida ularda kechadigan munosabatlardagi infratuzilmalarning o'rni tadqiq etiladi va bunda tabiiyki, infratuzilmalar tarmoqosti (yoki ko'makchi soha) soha sifatida baholanadi. Ayrim tadqiqotchilar esa garchi infratuzilmalarning o'zini yoki uning muayyan bir yo'nalishini o'rgansalarda, ko'p hollarda uni yo qandaydir hudud, mintaqa darajasiga,

² <https://www.gazeta.uz/oz/2022/01/24/infrastructure/#>

yo iqtisodiy davr ichiga yoki munosabatlar tizimi darajasiga bog'laydilar. Bu esa yana yuqorida ta'kidlangan holatni, infratuzilmalarning davlat iqtisodiy siyosati e'tibori qaratilgan yoki iqtisodiy munosabatlar amal qiladigan ob'ekt yoxud shunday elementlardan biri sifatida baholanishiga sabab bo'ladi..

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Rivojlangan mamlakatlarda muhandislik ta'limini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishi talabalarning o'quv ishlarini boshqarish tizimini, shuningdek, kasbiy ta'limning tashkiliy tuzilmasi doirasida bo'lajak muhandislarning mustaqilligi, mas'uliyati va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlarini optimallashtirishdir. Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadi tegishli darajadagi va profilli, mehnat bozorida raqobatbardosh, kasbni yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohaslariga yo'naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlashdir. Ilm – fan, texnika va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan turli xil yangiliklarni joriy yetish nafaqat asosiy umumiy nazariy tayyorgarlikni-mahalliy muhandislik ta'limi merosi va g'ururini saqlab qolish, balki mustahkamlash ham zarur.

Bo'lajak muhandislar uchun modellashtirish metodini o'zlashtirish muhimligini alohida ta'kidlashimiz lozim.

Zamonaviy jamiyatda muhandislik-konstruktorlik faoliyatining roli tobora o'sib bormoqda, bu esa so'nggi ilmiy yutuqlardan amaliyotda foydalanishga imkon beradi va ularni ilmiy-amaliy tadqiqotlarda tadbiiq etish samaradorligini oshiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Hozirgi kunda, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda respublika oliy ta'lim muassasalarida dizayn va loyihalarni boshqarish sohasida muhandis kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha qo'shma tadbirlar dasturi loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi talabalar o'rtasida professionallik va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek ularni sanoat qurilishi, loyihalash, loyihalarni boshqarish, sanoatni rivojlantirish va boshqa faoliyat sohaslaridagi zamonaviy talablar bilan tanishtirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anisimov O.S. Inson ruhiyatining yaxlitligi kontekstida shaxs, sub'ekt, shaxs // Psixologiya olami. 2017. No 1. S. 24-28.
2. Gorovaya V.I. Zamonaviy universitetning ta'lim maydonida o'quv ma'lumotlarini loyihalash va joriy etish / V.I. Gorovaya, O.G. Zaitseva, S.I. Tarasova. M., 2013. 135 b.
3. J. van Gig "Amaliy umumiy tizimlar nazariyasi": Per. ingliz tilidan. M.: Mir, 2011. 733 b.
4. Karavaeva E.A. "Shaxsning axborot madaniyati" kursini o'tkazish tajribasidan // Maktab kutubxonasi. 2015. No 8. B. 40–46.
5. Negodaev I.A. madaniyatni axborotlashtirish. M.: Akademiya, 2012. 212 b.